



TIBBIY MULOQOTDA TERMIN VA ODDIY SO‘ZLAR MUVOZANATI

Ma'ruf Sag'dullayev Ilhom o'g'li

*Tashkent davlat tibbiyot universiteti 1-son o'zbek va xorijiy tillar kafedrası
assistenti*

Boymirzayev Boburmirzo

Toshkent davlat tibbiyot universiteti 1-bosqich talabasi

Annotatsiya: Mazkur maqolada tibbiy muloqot jarayonida maxsus terminologiya va oddiy, tushunarli so'zlardan foydalanish masalasi yoritiladi. Terminlar tibbiyot sohasida ilmiy aniqlik va kasbiy muloqotni ta'minlash, shifokor–bemor muloqotida oddiy so'zlar axborotni to'g'ri yetkazish hamda ishonch va psixologik qulaylikni shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Maqolada terminlarning ortiqcha yoki yetarli darajada qo'llanmasligi natijasida yuzaga keladigan kommunikativ muammolar tahlil qilinadi hamda terminlarni oddiy so'zlar orqali izohlash va kontekstga mos holda qo'llash yo'llari ko'rsatib beriladi. Tadqiqot natijalari tibbiy nutq madaniyatini takomillashtirish va samarali tibbiy muloqotni ta'minlashga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: tibbiy muloqot, tibbiy terminologiya, oddiy so'zlar, shifokor–bemor muloqoti, nutq madaniyati, kommunikativ muvozanat.

Abstract: This article examines the use of medical terminology and plain, understandable language in medical communication. While medical terms ensure scientific accuracy and professional interaction, plain language plays an important role in doctor–patient communication by enabling clear information delivery and fostering trust and psychological comfort. The article analyzes communicative problems caused by the excessive or insufficient use of medical terms and highlights ways of explaining and adapting terminology according to the communicative



context. The findings contribute to improving medical speech culture and ensuring effective medical communication.

Keywords: *medical communication, medical terminology, plain language, doctor–patient communication, speech culture, communicative balance.*

KIRISH:

Zamonaviy tibbiyot nafaqat ilmiy-texnik taraqqiyot, balki inson omiliga yo'naltirilgan yondashuv bilan ham tavsiflanadi. Shu jarayonda tibbiy muloqot shifokor va bemor o'rtasidagi munosabatlarning samaradorligini belgilovchi asosiy omil hisoblanadi, ayniqsa axborotni to'g'ri, aniq va tushunarli yetkazish davolash jarayonining muvaffaqiyatiga bevosita ta'sir qiladi.

Tibbiy muloqotda terminologiya va oddiy, kundalik so'zlar bir vaqtda qo'llanadi. Terminlar ilmiy aniqlik va mutaxassislar o'rtasidagi muloqotni ta'minlasa, oddiy so'zlar bemorning axborotni anglashiga, ruhiy holatini barqarorlashtirishga va shifokorga bo'lgan ishonchni mustahkamlashga xizmat qiladi. Termin va oddiy so'zlarning noto'g'ri nisbatda qo'llanishi esa muloqotda tushunmovchilik va psixologik noqulayliklarga olib kelishi mumkin.

Ushbu maqolada tibbiy muloqotda terminologik birliklar va oddiy so'zlarning uyg'unligi, ularning kommunikativ vazifalari hamda shifokor–bemor munosabatlaridagi ahamiyati yoritiladi. Tadqiqot tibbiy nutq madaniyatini takomillashtirish, shifokorlarning kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirish va bemor bilan samarali muloqotni ta'minlashga xizmat qiladi.

Asosiy qism:

Tibbiy muloqot tibbiyot fanining ajralmas tarkibiy qismi bo'lib, shifokor va bemor o'rtasidagi samarali axborot almashinuvini ta'minlaydi. Ushbu jarayonda terminologiya ilmiy aniqlikni saqlash, kasbiy faoliyatni standartlashtirish va mutaxassislar o'rtasidagi muloqotni samarali tashkil etishda asosiy vosita sifatida xizmat qiladi. "Terminlar orqali kasalliklar, simptomlar, tashxis va davolash usullari qisqa va aniq ifodalanadi"^[1], bu esa tibbiy nutqning kasbiy va ilmiy qiymatini

¹ Abdullayev A. Nutq madaniyati asoslari. — Toshkent: Fan, 2010.



oshiradi. Shu bilan birga, terminlar asosan kasbiy auditoriyaga mo'ljallangan bo'lib, bemor uchun ko'pincha tushunarsiz bo'ladi. Shunday ekan bejiz, "so'z — bu tig', so'z — bu malham. So'z shifokorning eng muhim quroli bo'lib, u bemorning ruhiy holatiga bevosita ta'sir ko'rsatadi"^[2]. Darhaqiqat so'z qudratiga ustoz Qosimovdek qisqa, lo'nda va bu qadar kuchli ta'rid berish qiyin. Sunday ekan bir o'ylab ko'raylik. Agar shifokor terminlarni izohlamasdan qo'llasa, axborot yetkazish jarayoni murakkablashadi va bemorda qo'rquv, ishonchsizlik hamda noaniqlik hissi yuzaga keladi, bu esa muloqot samaradorligini pasaytiradi. Shu sababli, har bir "shifokor bemor bilan suhbatda shirinsuxan, so'zlari tushunarli va ishonarli bo'lishi lozim, chunki bemorga eng avvalo so'z orqali ta'sir ko'rsatiladi"^[3]. Tibbiy nutqda oddiy va tushunarli so'zlar muhim kommunikativ vazifani bajaradi. Kundalik so'zlar axborotni bemor uchun tushunarli qiladi, psixologik qulaylikni ta'minlaydi va shifokorga bo'lgan ishonchni mustahkamlaydi. Oddiy so'zlardan foydalanish shifokorning kasbiy darajasini pasaytiruvchi omil emas, aksincha, uning kommunikativ kompetensiyasini namoyon qiladi. "Murakkab ilmiy tushunchalarni bemorning idrokiga mos tarzda izohlash imkoniyati nutqning tushuntiruvchi, tarbiyaviy va psixologik vazifalarni bajarishiga xizmat qiladi"^[4]. Xususan, professor Qosimov ta'riflaganidek, tibbiyot faqat tashxis va davolash bilan cheklanmaydi, balki bemor bilan insoniy va axloqiy muloqotni ham o'z ichiga oladi. Shunday ekan shifokor nafaqat o'z ishining ustasi, balki so'z sehrining bilimdoni ham bo'lishi lozim. Zero, uning og'iz bo'shlig'idan chiqayotgan hard bir so'z bemor uchun yo hayot, yo mamot eshiklarini ochishga xizmat qiladi. Shifokorning vazifasi esa bemorni halokatga qulatish emas, balki hayot chashmalari ila sug'orishdir!

Tibbiy amaliyotda termin va oddiy so'zlar o'rtasidagi muvozanatning buzilishi turli kommunikativ muammolarga olib keladi. Terminlarning haddan tashqari ko'p qo'llanishi bemor uchun axborotni tushunarsiz va yopiq qiladi, ularni mutlaqo chetlab o'tish esa ilmiy aniqlikni yo'qotadi. Shu bois tibbiy muloqotda optimal

² Qosimov Tibbiy deontologiya. — Toshkent: Yangi asr avlodi, 2007, 19-bet.

³ Qosimov Tibbiy deontologiya. — Toshkent: Yangi asr avlodi, 2007, 29-bet.

⁴ Qodirov B. Tibbiy psixologiya. — Toshkent: Abu Ali ibn Sino nomidagi nashriyot, 2015.



yondashuv — terminlarni zarur hollarda qo'llash, ularni oddiy so'zlar yordamida izohlash va kontekstga moslashtirishdan iborat. Masalan, tashxis nomi termin shaklida aytilgach, uning mazmuni sodda tilda tushuntirilishi muloqot samaradorligini oshiradi. Bu holatda termin ilmiy vazifani, oddiy so'z esa kommunikativ vazifani bajaradi. Termin va oddiy so'zlar muvozanatini ta'minlash shifokorning nutq madaniyati va tilga ongli munosabati bilan chambarchas bog'liqdir. "Tibbiy ta'lim jarayonida kommunikativ ko'nikmalarga alohida e'tibor qaratish, talabalarga bemor bilan muloqotda til tanlash mezonlarini o'rgatish muhim ahamiyat kasb etadi"[⁵]. Real muloqot vaziyatlarini tahlil qilish, dialogik nutqni rivojlantirish va terminologik birliklarning izohli variantlarini qo'llash shifokor nutqining samaradorligini oshiradi. Shu tarzda tibbiy muloqot nafaqat axborot almashish vositasi, balki insonparvarlik tamoyillariga asoslangan ijtimoiy munosabat shakliga aylanadi.

XULOSA

Tibbiy muloqot shifokor faoliyatining muhim tarkibiy qismi bo'lib, uning samaradorligi ko'p jihatdan til vositalarining to'g'ri tanlanishi va maqsadga muvofiq qo'llanishiga bog'liq. Ushbu jarayonda tibbiy terminlar va oddiy so'zlar o'rtasidagi muvozanatni saqlash axborotni aniq yetkazish, bemor bilan ishonchli munosabat o'rnatish hamda davolash jarayonining muvaffaqiyatini ta'minlashda hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Xususan, ustoz Qosimov ta'kidlaganlaridek, shifokor tomonidan ishlatiladigan har bir so'z bemorning ruhiy holatiga ta'sir ko'rsatadi. Tushunarsiz, murakkab iboralar bemorda xavotir va qo'rquvni kuchaytirishi mumkin. Shunday ekan, imkon qadar "shifokor nutqi aniq, mas'uliyatli va o'ylangan bo'lishi kerak, chunki noto'g'ri yoki noaniq so'zlar bemor ishonchiga putur yetkazadi"[⁶].

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, terminlarning haddan tashqari ko'p va izohsiz qo'llanilishi bemor uchun tushunarsiz vaziyatlarni yuzaga keltirsa, ularni asossiz ravishda chetlab o'tish tibbiy axborotning ilmiy aniqligiga putur yetkazadi. Shuning

⁵ Mahmudov N. Til va muloqot madaniyati. — Toshkent: Akademnashr, 2018.

⁶ Qosimov Tibbiy deontologiya. — Toshkent: Yangi asr avlodi, 2007.



uchun shifokor nutqida terminologik birliklar zarur hollarda, oddiy va tushunarli soʻzlar bilan uygʻun holda qoʻllanishi lozim. Bunday yondashuv muloqotning samaradorligini oshiradi va bemorning davolash jarayonida faol ishtirok etishiga imkon yaratadi.

Xulosa qilib aytganda, tibbiy muloqotda termin va oddiy soʻzlar muvozanatini taʼminlash nafaqat lingvistik, balki ijtimoiy va psixologik ahamiyatga ega masaladir. Bu muvozanat shifokorning nutq madaniyati, kasbiy masʼuliyati va insonparvarlik tamoyillariga sodiqligini namoyon etadi. Shu bois tibbiy nutqni takomillashtirish jarayonida kommunikativ yondashuvni kuchaytirish va bemor manfaatlarini ustuvor qoʻyish dolzarb vazifa sifatida qaralishi lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Abdullayev A. Nutq madaniyati va uslub masalalari. — Toshkent: Fan, 2010.
2. Qosimov E. Y. Tibbiy deontologiya (oʻquv qoʻllanma). — Toshkent: Yangi asr avlodi, 2007.
3. Qodirov B. Tibbiy psixologiya. — Toshkent: Abu Ali ibn Sino nomidagi nashriyot, 2015.
4. Rasulov R. Oʻzbek tili terminologiyasi masalalari. — Toshkent: Fan, 2006.
5. Islomov F. Kasbiy kommunikatsiya va muloqot koʻnikmalari. — Toshkent: Pedagogika, 2014.
6. Karimov Sh. Shifokor–bemor muloqotining psixologik asoslari. — Samarqand: Tibbiyot nashriyoti, 2016.
7. Hakimov B. Tibbiy axborot va nutq madaniyati. — Toshkent: Fan, 2020.
8. Qosimov B. Shifokor va bemor muloqoti madaniyati. — Toshkent: Tibbiyot nashriyoti, 2009.